

BUXORO MUSIQA MAKTABINING O'ZIGA XOSLIGI

To'rayev Qahramon Fayzullayevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Milliy qo'shiqchilik” kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8106918>

Annotatsiya. Maqolada XX asrning boshida tashkil etilgan Buxoro musiqa maktabining o'zbek milliy musiqa san'ati rivojidadagi o'rni tahlil qilingan. Shashmaqom san'atini o'rganish, uni notalashtirish, kelajak avlodga asl holatida yetkazish yo'lida qilingan harakatlar to'g'risida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, maktab, shashmaqom, sozanda, xonanda, tarbiya.

IX asrning oxiri va X asrning boshida Buxoroda tug'ilib, yashab o'tgan yirik xonanda, sozanda va musiqiydon Abul Abbas Baxtiyor tomonidan Buxoroda ilk musiqa maktabi ochiladi. Abul Abbas Baxtiyor maktab o'quvchilariga musiqa nazariyasi va amaliyotidan saboq beradi. Shuningdek, u maktab o'quvchilari uchun musiqa nazariyasidan qator darsliklar yaratadi. Shu bilan birga yunon olimlari Ptolemey va Yevklidlarning “Ritmika”, “Musika qonunlari” kabi yirik asarlarini tarjima qilib maktab dasturiga kiritadi. Abulabbos Mutrib o'z faoliyati davomida ko'p shogirdlar tayyorlaydi. Jumladan, ulug' shoir va sozanda Abu Abdulloh Ro'dakiy ham uning eng mohir shogirdlaridan bo'lgan. Keyinchalik bu an'ana (maktabdorlik an'anasi) Samarqand, Hirot, Isfahon, Sheroz, Dehli va boshqa shaharlarda ham davom etib, ushbu maskanlarda ham musiqiy maktablar ta'sis etilib, iste'dodli yoshlarga musiqiy ta'lim berish yo'lga qo'yiladi. Tashkil etilgan mazkur musiqiy maktablarga Amir Xusrav, Abduqodir Marog'iy, Nosiriddin Qavvol, Mahmud Husayn, Usta Shodi, G'ulom Shodi, Mirak Majruh Buxoriy, Xoja Ja'far Qonuniy, Xoja Aliakbar Qonuniy, Najmiddin Kavkabi, Buxoriy, Mirzaoliy Changiy, Darveshali Changiy va boshqalar sardorlik hamda ustozlik qilganlar. Demak yoshlarga musiqiy tarbiya berish, ularni ma'lum dasturlar asosida o'qitish maqsadida ochilgan musiqa maktablari tarixining ham uzoq ildizlari borligini ko'rish mumkin.

XX asr boshida Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitratlar tashabbusi bilan Buxoroda tashkil etilgan Sharq musiqasi maktabi esa, O'rta Osiyo hududda yagona musiqa maktabi hisoblanib, u yuqorida aytib o'tilgan musiqa maktablarini tashkil etish an'anasining mantiqiy davomi bo'lgan. Buxoro Sharq musiqasi maktabida ikki yo'nalishda: xonandalik va sozandalik – maqom ijrochiligi bo'yicha yosh iste'dodlarga saboq berilgan. Xonandalik bo'limiga Ota Jalol, sozandalik sho'basiga Ota G'iyos rahbarlik qilganlar. Maktabning ilk o'qituvchilari ota Jalol, ota G'iyos, domla Halim, usta Shodi, Hoji Abdurahmon, Haydarqul qorovulbegi, Tohirjon Davlatzoda, Levi Boboxonov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Mirzaotajon Tanburiy kabi maqomdon ustozlar bo'lgan. Sharq musiqa maktabining dastlabki o'quvchilari esa Najmiddin Nasriddinov, Boboqul Fayzullayev, Shohnazar Sohibov, Muhtor Ashrafiy, Moshe Boboxonov, Boruh Zirkiyev, Olimjon Halimov, Aminjon Ismatov, Homidiy, Ma'ruf Nosirov, Jabbor Jalilov singari iste'dodli yoshlar bo'lgan. Musiqa maktabida yoshlarga o'zbek va tojik xalqining boy musiqiy merosi – Shashmaqomning mushkilot va nasr sho'balari bilan birga arab tili fani ham o'qitilgan. Maktabga dastlab Abdurauf Fitrat, keyinchalik esa Rajabzoda Niyoziy rahbarlik qilganlar.

Gap shundaki, o'sha davrda Sharq musiqa maktabiga yoshlarni o'qishga jalb etish oson kechmagan, chunki u paytda, musiqa mashg'uloti xalq orasida kasb hisoblanmagan va hatto sozandalik ayrim kishilar nigohida ayb sanalgan mashg'ulot sifatida ko'ringan. Ushbu

qiyinchilik va mushkilotlarga qaramay mahalliy hukumat bu muhim ishga katta e'tibor qaratib, bepul o'quv tizimini joriy qilgan va maktabning barcha sarfu xarajatlari hamda o'qituvchilarning moddiy ta'minoti Buxoro xalq Respublikasi maorif noziri Abdurauf Fitrat zimmasiga yuklatilgan (ba'zi manbalarga qaraganda maktab muallimlarining oylik maoshini A.Fitrat o'z shaxsiy mablag'i hisobidan to'lagan).

Keyinchalik Sharq musiqa maktabini o'zbek musiqasining kelajakdagi yirik arboblari mashhur bastakorlar hamda nomdor sozandalar: Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Fazliddin Shamsiddinov, Tovur Jumayev, Rahimjon Qomiljonov, Ayub Qodirov, Ergash Shukrullayev, Samehjon Vohidov, To'ra Jo'rayev, Yoqub Davidov, Ari Boboxonov, Sulaymon Taxalov, Amin Karimov, Misha Gulkarov kabi iste'dodli san'atkorlar bitirib chiqadilar. Abdurauf Fitrat jonkuyarligi va fidoyiligi evaziga Sharq musiqa maktabida musiqa ta'limi ancha rivojlanadi va 1934 yildan boshlab mazkur o'quv maskani zahirida Buxoro musiqa bilim yurti tashkil etiladi (Sharq musiqa maktabi esa, mustaqil tarzda o'z faoliyatini bolalar musiqa maktabi nomi bilan hanuzgacha davom ettirib kelmoqda).

Musiqa bilim yurtiga iste'dodli tashkilotchi Temur Baqoyev direktor etib tayinlanadi. Bu davrga kelib musiqa bilim yurtining o'quv rejasi va dasturlari takomillashib, musiqaning turli sohalari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydigan yangi bo'limlar ochiladi va bilim yurti musiqa pedagoglari safi mohir tashkilotchi va iste'dodli murabbiy Ahmad Ixtiyorov, Nusrat Inoqov kabi qobiliyatli mutaxassislar bilan to'ldiriladi.

Shunday qilib, musiqa bilim yurtida o'qish jarayoni qizg'in ketayotgan paytda Ikkinchi jahon urushi boshlanib bilim yurti faoliyati bir muddat o'z ishini to'xtatadi va u 1944 yildan boshlab yana o'z faoliyatini davom ettira boshlaydi. Urush yillarida Leningrad, Kiyev, Belorussiya va Boltiq bo'yi Respublikalaridan Buxoroga evakuatsiya qilingan yirik musiqa mutaxassislari F.Myuller, B.O.Butuzov, F.YE.Margelas, A.M.Davidenko, SH.G.Alimov, V.S. Vlasenko (mohir pedagog V.S.Vlasenko Buxoroga urushdan ancha oldin kelib qolgan edi) L.G.Plegrina, L.G.Ivanova, O.Ragozin, V.A.Korostaleva singari tajribali pedagoglar bilim yurtida ishlay boshlaydilar. 1947 yildan boshlab musiqa bilim yurti Buxoro davlat musiqa bilim yurti deb atala boshlaydi. Shu yildan boshlab bilim yurtiga uzoq yillardan beri direktor o'rinbosari vazifasida ishlab kelayotgan mohir tashkilotchi, qobiliyatli pedagog Ahmad Ixtiyorov rahbarlikka tayinlanadi. Ustoz A.Ixtiyorov bu lavozimda qariyb 30 yilga yaqin muddatda faoliyat yuritib, bilim yurtida o'quv ishlari sifatini ko'tarish, uning moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi ta'lim sifatini yaxshilab, malakaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlashda fidoyilik qilib, bilim yurtining Respublikada katta mavqega ega bo'lishi uchun jasorat ko'rsatdi.

Darhaqiqat, ustoz A.Ixtiyorovning jonkuyarligi tufayli bilim yurtida keyingi yillarda kadrlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslik turlari kengaydi, o'quv dasturlari yangilanib, o'quv sifati sezilarli darajada takomillashdi. Bu davrda bilim yurtini A.Boboxonov, S.Taxalov, A.Karimov, M.Muhammedov, S.Shodmonov, U.Naimov, M.Sa'dullayev, T.Tursunov, O.Atoev, F.To'rayev, S.Do'stov, J.Hotamov, R.Inoyatov, H.Rahmatov, H.Abdullayev, M.Hojiyev, M.Rahmatov, O'.Rasulov, J.Shukurov, M.Bafoev, O.Matyobov singari o'zbek musiqa san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan va qo'shib kelayotgan soz ustozlari hamda musiqa tadqiqotchilari bitirib chiqdilar.

1976-yilda Buxoro davlat musiqa bilim yurtiga atoqli kompozitor M.Ashrafiy nomi berildi. Bilim yurtida 1983-yilda qo'g'irchoq teatri va rassomchilik bo'limlari ochilishi

munosabati bilan u Buxoro san'at bilim yurtiga aylantirildi. Bilim yurti xususan, Mustaqillik yillarida o'z salohiyati va mavqeini yanada kengaytirdi. U bu jarayonda yangi o'quv yo'nalishlari va ixtisosliklarga ega bo'ldi. An'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, xalq raqsi, estrada cholg'uchiligi, estrada xonandaligi, musiqa nazariyasi va bastakorlik, ovoz operatorligi, badiiy bezash, sahna mahorati singari o'nlab yangi bo'limlar ochilib, uning kadrlar tayyorlash salohiyati yanada kengaytirildi.

Bu davrda fortepiano, xor dirijyorligi, torli cholg'ular, damli sozlar, xususan, milliy musiqaga e'tibor kuchayib, an'anaviy ijro va hofizlik bo'limlari talaba hamda o'qituvchilari Respublika miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik – tanlovlarda ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritib boshladilar. Bular safida O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Orif Atoev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Yunus To'rayev, Bahrom Mavlonov, Respublikada xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Rahmatulla Inoyatov, sobiq talabalardan O'zbekiston xalq hofizi Sohib Niyozov, Respublikada xizmat ko'rsatgan artistlar Rustam Abdullayev, Yulduz Turdiyeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Salomat Rahmonova, "Nihol" mukofoti sohibi Jo'raboy Hafizov, Zulfiya mukofoti sovrindori Mohichehra Shomurodova, Gulzoda Xudoynazarova, Ilyos Arabov, Sayyod Jo'rayev, Dilfuza va Marjona Qobilovalar, Gulchiroy Baxshullayeva, Moskvada o'tkazilgan "Yangi nomlar" xalqaro anjumanida fortepiano bo'yicha sinf ustasi Munira Xo'jayeva, Marjona Ikromova va Sabohat Ashurova, shuningdek iste'dodli xonanda va sozandalar O'lmas Olloberganov, Bobur Kenjayev, Muhabbat Mirzayeva va Hilola Samiyeva nomlarini aytish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoroda tashkil etilgan sharq musiqa maktabi o'zbek milliy musiqa san'ati rivojida katta ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kunga qadar o'z samarasini ko'rsatib kelayotganini yuqorida ta'kidlangan yutuqlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

References:

1. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent, Musiqa. – 2004. – 216 b.
2. Safarov O. Shashmaqom vatani ohanglari. – Toshkent, Fan. – 2009.
3. To'rayev F. Buxoro shashmaqomi tarixidan... - Toshkent, Musiqa. - 2011.- 180 b.
4. To'rayev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar. – Toshkent, Navro'z. - 2018. - 320 b.
5. To'rayev F. Buxoro mug'anniylari. – Toshkent: Fan. - 2008. – 323 b.
6. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi uning tarixi. –Toshkent: Fan. 1993.